

INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO STANDARTLARNI BILASIZMI?**Ne'matjonova Mumtozbegin Baxromjon qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi.

+998-94 152-05-26. mumtoz441@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15186068>

Annotatsiya. Ushbu ishda inson huquqlari tushunchasi, ularning tarixiy rivoji, xalqaro huquqdagi o'rni va milliy qonunchilik bilan uyg'unligi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarning mohiyati, ularning "qattiq" va "yumshoq" huquq shakllariga ajralishi, hamda xalqaro hujjatlarning (BMT deklaratsiyasi, paktlar, konvensiyalar) O'zbekiston qonunchiligida aks etishi masalalariga qaratilgan. Shuningdek, muammoli kazus sifatida Adelaida Kimning tinch namoyishdagi ishtiroki sababli hibsga olinishi va uning xalqaro tashkilotlarga murojaati orqali inson huquqlari buzilish holatlarini hamda bugungi kundagi inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutlar faoliyativ standartlarning ahamiyatini huquq jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, xalqaro huquq, yumshoq huquq, qattiq huquq, inson huquqlar, xalqaro standartlar, milliy qonunchilik, milliy institutlar, qonunchilik.

DO YOU KNOW INTERNATIONAL HUMAN RIGHTS STANDARDS?

Abstract. This work analyzes the concept of human rights, their historical development, their place in international law, and their harmonization with national legislation. The main focus is on the essence of international human rights standards, their classification into "hard" and "soft" law, and how international documents (such as UN declarations, covenants, and conventions) are reflected in Uzbekistan's legislation. Furthermore, a problematic case involving the detention of Adelaida Kim for participating in a peaceful protest and her appeal to international organizations is examined to explore human rights violations. The paper also assesses the legal role of national institutions and standards for the protection of human rights in contemporary times.

Keywords: Human rights, international law, soft law, hard law, human rights standards, international standards, national legislation, national institutions, legislation.

**ЗНАЕТЕ ЛИ ВЫ МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ В ОБЛАСТИ ПРАВ
ЧЕЛОВЕКА?**

Аннотация. В данной работе анализируются понятие прав человека, их историческое развитие, место в международном праве и гармонизация с национальным законодательством. Основное внимание уделено сущности международных стандартов в области прав человека, их классификации на «жесткое» и «мягкое» право, а также

отражению международных документов (таких как декларации ООН, пакты, конвенции) в законодательстве Узбекистана. Кроме того, рассматривается проблемный случай с задержанием Аделаиды Ким за участие в мирной акции протеста и её обращением в международные организации как пример нарушения прав человека.

Также проводится правовой анализ деятельности национальных институтов и значимости стандартов по защите прав человека в современное время.

Ключевые слова: Права человека, международное право, мягкое право, жесткое право, стандарты прав человека, международные стандарты, национальное законодательство, национальные институты, законодательство.

"Erkinlik va inson huquqlari – bu nafaqat yuridik tushunchalar, balki har bir insonning hayoti va qadr-qimmatini bilan bog‘liq tamoyillardir."

Barak Obama, AQShning sobiq prezidenti

Kirish. Inson. U dunyoga kelganidan boshlab to vafot etgunga qadar bir qator huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi. Negaki, inson jamiyatda yashar ekan bir qator ijtimoiy munosabatlarga kirishadi va huquqlardan foydalanib boradi. **Inson huquqlari**- bu normativ me‘yorlardan tuzilgan va shaxsning huquq va erkinligini ifodalovchi, uning turmush sharoitida jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan munosabatlarini belgilab beruvchi tushunchadir¹. Inson huquqlari tushunchasi tabiiy huquqlar majmui deb ham atataladi, chunki inson umri davomida foydalanadi va ehtiyoj sezadi. Inson huquqlarining rivojlanishi uning payodo bo‘lish tarixi va bosqichlariga bevosita bog‘liqdir. Inson huquqlari paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi g‘oyalar chet davlatlarda XX asrning 70-80- yillarda, bizning mamlakatimizda esa 90-yillar asosan mustaqillikka erishgandan so‘ng ro‘y berdi. Bu haqida ko‘plab olimlar o‘z fikr-mulohazalarini berib o‘tishgan. 1995-yili rus olimi **B.L.Nazarov** inson huquqlari to‘g‘risidagi fanni, ushbu huquqlar paydo bo‘lishining nisbatan umumiy qonuniyatlari va tarixi nazariyasi va tarixi to‘g‘risidagi ta‘limot sifatida e‘tirof etishga chaqirdi². Inson huquqlari o‘rganiladigan fan, ijtimoiy institut, insonlarning jamiyatdagi huquqlari va voqealiklarni tizimlashtiruvchi faoliya sohasidir. Inson huquqlarining obyekti esa davlat va uning fuqarolari o‘rtasidagi inson huquqlariga oid ijtimoiy munosabatlarini o‘rganishdan iborat. Bu borada esa davlat fuqarolarga inson huquq va erkinliklarini yaratish va ta‘minlash bo‘yicha majburiyatlarini oladi va kafolatlaydi. **Inson huquqlari fanining predmeti** esa ushbu fan doirasida vujudga keladigan va olib boriladigan masalalarni tushunishimiz lozim.

¹ Yusupova F. Inson huquqlari. O‘quv qo‘llanma.-T.:2024. -8b

² Права человека. История, теория и практика/Организатор авторского коллектива Б. Назаров.-М.: 1995.-С. 17.

Ushbu tarkibga esa inson huquqlar mexanizmlarini ishlab chiqish, insonning qonuniy manfaatlariga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa huquqlariga rioya etish bilan bog'liq masalalar. O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro huquqning subyekti sifatida xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lganligi va inson huquqlari bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni ratifikatsiya qilganligi milliy qonunchilik tizimiz ham shu qoidalarga asoslanganligini ko'rishimiz mumkin.

Misol uchun **yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda** ham aynan ikkinchi bo'lim inson va fuqaroning asosiy huquqlari keltirib o'tilgan. Bu borada inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilganligini, davlat esa ushbu huquqlarni ta'minlash bo'yicha majburiyatga egaligi, inson huquqlari hech qanday asoslarsiz cheklanmasligi, aybsiz hibsga olish mumkinmasligini ta'kidlab o'tilgan. Xalqaro munosabatlarda davlatlar va uning ishtirokchilari bo'lgan xalqaro tashkilotlar inson huquqlari borasida izchil islohotlar amalga oshirilishi va ular o'rtasidagi huquqiy munosabatlar inson huquqlariga bevosita bog'liqligini aks ettiradi.

Insonparvarlik va inson huquqlari ustunligi prinsiplari esa inson va davlat o'rtasidagi tafovut bo'lganda inson huquqlari ustun kelishi kabi xalqaro prinsiplar davrlarning milliy normativ-huquqiy hujjatlari ishlab chiqarilishida asos bo'ladi. Inson huquqlari to'plami (bandon of human rights) global ahamiyati esa bugungi kunda amalga oshirilayotgan muammoli vaziyatlarga yechimlarni ko'rishimiz mumkin. Xo'sh, agar inson huquqlari mavjud bo'lmasa, qanday oqibatlar kelib chiqardi, agar inson huquqlari cheklansa, davlatlarning nafaqat ijtimoiy siyosati, balki, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy hayotida inqirozga yuz tutgan bo'lar edi. Inson o'rtasidagi tafovutlar, kamsitilishlarga, inson huquqlari buzilgan mamlakatlar ko'pincha siyosiy beqarorlik, isyonlar va to'ntarishlarga duch keladi. Bunday holatlar ichki va tashqi siyosatni qiyinlashtiradi. **Qarama-qarshi qonunlar va repressiyalar ya'ni** inson huquqlarini inkor etish repressiv hukumatlar va diktatorlik rejimlarining kuchayishiga olib keladi. Odamlarni qo'rquvda yashashga majbur qilib, ularni o'z huquqlari uchun kurashishga undaydi. Shuning uchun ham davlat tashkil topishida va rivojlanishi uchun ham inson huquqlar birlamchi prinsip hisoblanarkan desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Asosiy qism. Xalqaro inson huquqlar va me'yorlarini tahlilini ko'rib o'tamiz. Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga **Yuldasheva G** va **Gafurova N** darsliklarida keltirichicha xalqaro standartlar inson huquq va erkinliklari tamoyilini mustahkamlovchi va rivojlantiruvchi xalqaro huquqiy normalar yig'indisi tushuniladi³. Bu esa agar davlatlar xalqaro standartlarni ta'minlamasa ularga nisbatan javobgarlikni ham anglatadi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq normalari ikki tusga ega, ya'ni majburiy (imperative), boshqacha qilib aytganda, xalqaro qattiq huquq (International hard law) va majburiy (Declarative) xarakterga ega bo'lmagan, "xalqaro yumshoq huquq" (International soft law), soddaroq qilib aytganda universal

³ Yuldasheva G., Gafurova N, Inson huquqlari. O'quv qo'llanma.-T.: TDYU, 2023,44b.

va mintaqaviy tusdagi hujjatlar desak ham bo'lad⁴. Universal ya'ni butun dunyo va xalqaro subyektlar tomonidan tan olingan va ichki qonunchilikka ham implementatsiya qilingan standartlar va mintaqaviy- bu esa muyaana hududda ya'ni aniq bir mintaqada amal qiladigan va jiddiy javobgarlik choralari ham aniqligi bilan universal xalqaro standartlardan ajralib turadi.

Xalqaro standartlar deklaratsiya, pakt, xalqaro shartnomalar ko'rishida mavjud.

Insonning huquqlar va erkinliklarini ta'minlab beruvchi asosiy tashkilot sifatida 1945-yilda tuzilgan Birlashgan Millatlar tashkilotidir. BMT Ustavi (1945) quyidagi asosiy organlarni belgilaydi: Xavfsizlik Kengashi, Bosh Assambleya, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (ECOSOC), Vasiylik Kengashi, Kotibiyat, Xalqaro Sud. Hozirda Vasiylik Kengashi deyarli faoliyat yuritmaydi, chunki BMTning mustamlakalarga qarshi siyosati o'z maqsadiga erishgan va kengash 1994-yilda o'z ishini to'xtatgan⁵.

BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlari global muammo olib chiqilgan hujjat sifatida e'tirof etilgan. Ushbu hujjat 30 ta moddadan iborat bo'lib davlatlarning tengligi, ta'lim olish, va huquqlarda erkinliklari mavjudligi haqida keltirib o'tilgan. Hamma odamlar o'z qadriyatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak. (1-modda).

Deklaratsiyaning dastlabki moddasidayoq, insonlarning tengligini va ularning e'tirof etilganini ko'rishimiz mumkin. BMT tomonidan qabul qilingan yana bir qator hujjatlar mavjud bo'lib ular ham inson huquqlari sohasida yetakchi o'ringa ega. Ular ko'pincha inson huquqlari bo'yicha xalqaro bill deb ham ataladi. Bu hujjatlar qatoriga Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt 1966-yil 16-dekabr va xuddi shu yilda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt mavjud. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning ikkita fakultativ ya'ni yordamchi protokollari bor: 1966-yil 16-dekabr kuni BMT Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan va 1976-yilning 23-mart kuni kuchga kirgan. Ushbu protokolda inson o'zining buzilayotgan huquqini himoya qilish uchun xalqaro tashkilotlarga individual tarzda shikoyat berish mexanizimini belgilab beradi, misol uchun shikoyat beruvchi shaxs ichki himoya vositalaridan foydalanib bo'lgan bo'lishi kerak, anonim ya'ni shaxsni no'malum shaxs ism, familiyasi, davlati ko'rsatilmagan shaxsning murojaat qabul qilinmaydi.

Yuqoridagi hujjatlar inson huquqlarning global miqyosda amalga oshirish uchun ishtirokchi davlatlar uchun majburiyat yuklasa, mintaqaviy inson huquqlar standartlari esa aniq hudud doirasidagi majburiyatlarni belgilab beradi.

⁴ Saidov A.X va boshqalar. Xalqaro ommaviy huquq.-T.:TDYU nashriyoti, 2023, 409b.

⁵ Philip Alston. International human Rights. Text and materials. – New York, 2024. 567b

Misol uchun Yevropa Inson huquqlari Konvensiyasi (1950), Amerika Inson huquqlari konvensiyasi (1969), Afrika xalqlari va inson huquqlari xartiyasi (1981). Demak, bu hujjatlar Yevropa, Amerika, Afrika mintaqalari uchun qonunchilikda amal qiladi. Yana qo'shimcha tarzda Inson huquqlari himoyasini ta'minlashga qaratilgan BMT ning xalqaro shartnomalari ham e'tibordan qoldirmasligi kerak. Bularga Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (1979), Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989), Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya (2006), Qiynoqlarga qarshi konvensiya (1984), Irqiy kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (1965). Xalqaro-huquqiy standartlar quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) Inson huquq va erkinliklari borasida xalqaro huquq normalari taqlqini; 2) Davlatlararo munosabatlarda ishtirokchilarning xulqiy me'yorlari; 3) "Prezentiv vazifani" ya'ni mazkur standartlar xalqaro huquqiy prinsiplarini chetlab oldini olish uchun⁶. Xalqaro huquqiy me'yorlar har bir davlatning inson huquqlariga rioya qilishini ta'minlash uchun fundamental asosdir. Negaki, ular o'rtasidagi umumiy qoidalarning shakllanishiga yordam berib, kamsitish, qiynoqlar, adolatsizlikka va huquqbuzarliklarning oldini olish imkonini yaratib beradi. Ushbu tahliliy material orqali xalqaro standartlarning inson huquqlariga qanchalik zarurligini, inson huquqlarni buzilishida xalqaro standartlarni amalga oshirilganligi bilan bog'liq hujjatlarni, vaziyatlarni ko'rib chiqamiz.

Xalqaro standartlarni ta'minlashda ayrim davlatlar o'zining milliy qonunchiligida implementatsiya qilmaganligi yoki o'zgacha talqin qilganligi tufayli inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni qo'llashda muammoli vaziyatlar kelib chiqmoqda. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlab qo'yilgan normalar buzilishi inson va davlat o'rtasidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga putur yetkazilishi mumkin. Muammoli vaziyatlarni yaxshiroq tahlil qilish kazus misolida ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo'lar edi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ro'yxatga olingan Inson huquqlari qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilgan Murojaat yuborgan shaxs Adelaida Kim Ishtirokchisi bo'lgan O'zbekiston respublikasini javobgar qilib ko'rsatganligini berib o'tilgan. Adelaida asosan muammolarini quyidagicha yoritib keltirgan: 2008-yil 6-dekabr kuni Toshkent shahrida huquqni muhofaza qilish organlari ishlaridagi adolatsizlikka qarshi tinch namoyishda qatnashgan. Ushbu ishtiroki uchun u hibsga olinib, sud tomonidan jarimaga tortilgan. Adelaida Kim bu qarorga qarshi chiqib, O'zbekiston Respublikasining ichki sud tizimida o'z huquqlarini himoya qilishga harakat qilgan, biroq natijaga erisha olmagan. Shundan so'ng, u Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari qo'mitasiga murojaat qilgan.

⁶ Mo'minov A. Inson huquqlari. Daeslik.-T.:Adolat,. 2013.445b.

Muallif tomonidan keltilgan faktlar Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqqaro paktning 2 (1)-(3), 9 (1), 12 14(1), 18, 19 va 21-moddalari bo'yicha huquqlari buzilganligini, shuningdek, u tinch namoyish o'tkazganligini va unga nisbatan nohaq MJTK ning 194(1), 195 va 201 (1)-moddalari bo'yicha ayblovi qo'yilib, asossiz hibsga olishganini ta'kidlaydi. 2008-yil 6-dekabr kuni sodir etilgandan keyin, Mirzo Ulug'bek tuman sudida unga 10 oylik ish haqi miqdorda jarima tayinlangan. U keyinchalik apellyatsiya, kassatsiya, nazorat tartibida berilgan.

Ammo shikoyatlar asossiz deb topilgan. U, shuningdek, unga nisbatan qonun emas, balki sharh asosida hukm chiqarilganini qayd etadi. U ushbu sharh O'zbekiston Konstitutsiyasining 29 va 33-moddalari hamda xalqaro standartlarga zid ekanligini, chunki unda yig'ilish o'tkazish uchun oldindan yozma ruxsat olish talab etilishi ko'zda tutilganini bildiradi. Muallif Paktning 2 (3)-moddasi bo'yicha samarali huquqiy himoya huquqi buzilganligini da'vo qiladi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 36 va 271-moddalariga tayanib, u ma'muriy javobgarlikka tortish huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab ikki oy ichida amalga oshirilishi kerakligini va agar ish yuritish shu vaqtga qadar boshlanmagan bo'lsa, ish tugatilishi lozimligini tushuntiradi. Kodeksning 320 (3)-moddasiga ko'ra, ma'muriy ish bo'yicha qaror kassatsiya sudi hukm chiqargan zahoti kuchga kiradi. Muallifning ta'kidlashicha, 2008-yil 6-dekabr kuni sodir bo'lgan voqealardan ikki oy o'tgach, ya'ni 2009-yil 6-fevralga kelib, ish yuritish tugatilishi kerak edi. Biroq, tuman sudi 2009-yil 11-fevral kuni uning apellyatsiya shikoyatini rad etgan.

Sudlar ish yuritishni belgilangan muddatda tugatmaganligi tufayli, muallifning Paktning 2 (1) va 2 (3) (a)-moddalari bo'yicha huquqlari buzilgan. Bunga qo'shimcha tarzda protsessual qoidalar buzilganligi keltirib o'tilgan: uning iltimosnomalar sud bayonnomasida qayd etilmaganligi, tarjimon yordamidan olish huquqi cheklanganligini, sud bayonnomalari soxtalashtirilganligi va unga ularni ko'chirishga ruxsat berilmaganligini, muddatlarga amal qilinmaganligi asos qilib ko'rsatildi⁷. Asoslarni normalar bo'yicha tahlil qilib amalga oshiramiz.

Konstitutsiyamizning 29 va 33-moddalarda (eski tahrirdagi Konstitutsiyaga ko'ra) har kim fikrlash so'z va e'tiqod erkinliklariga egaligi, siyosiy huquqlardan iborat bo'lgan 33-moddada Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega⁸. Siyosiy huquq O'zbekiston respublikasining fuqarolariga tegishli bo'ladi. Adelaida Kim ham 1951-yilda tug'ilgan O'zbekiston fuqarosidir.

⁷ <https://docstore.ohchr.org/SelfServices/FilesHandler.ashx?enc=UIpbsOFDEazQgX%2BDE4gFEhWvYmVK48au4pfNTo%2BnDvLCrjy4lRIAr%2BKjcUmnoJwwXpo8fLm3y6vZKiz6Eu%2B8qL7iioarO%2FhrhF40yGGeZkl%3D>

⁸ <https://lex.uz/uz/docs/-6445145> 29 va 33

Demak, siyosiy huquqlardan foydalana oladi, faqatgina qonunda miting, yig'ilish, namoyishlar qonunchilikda belgilan tartibda amalga oshirish lozim. Kim ham tinch ya'ni ichki ishlar xodimlarga bo'ysunganini, ixtiyoriy ravishda namoyishni tugatganligini ta'kidlab o'tadi.

Xalqaro hujjatda ham Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktning 21-moddasi va Deklaratsiyaning 20-moddasida tinch yig'inlar o'tkazish huquqi tan olingan⁹. Faqatgina jamoat tartibini saqlash, aholining sog'ligi va boshqa vaziyatda cheklanishi mumkin. Asossiz hibsga olinishi bo'yicha esa ushbu paktning 9-moddasi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyaning 9-moddada da hech kim asossiz hibsga olinmasligini va qamoqda saqlanishi mumkin emasligi keltirilgan. Paktning 14-modda 3-qismi e) agar u sudda ishlatiladigan tilni tushunmasa yoki ushbu tilni bilmasa, tarjimonning bepul yordamidan foydalanish; protsessual qoidalarining buzilishini, sud jarayoni nohaq ayblovlar va soxta hujjat bolganligini ta'kidlaydi¹⁰. Tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega. Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. (Konstitutsiya 29-modda).

Adelaida Kim bir tarafdin mushohada qiladigan bo'lsak, shikoyatlari o'rinni.

O'zbekiston Respublikasi yuqoridagi hujjatlarni ratifikatsiya qilganligi, ushbu prinsiplarni ta'minlash va huquq ijodkorligida, sud amaliyotida qo'llashni anglatadi.

Inson huquqlari qo'mitasi Adelaida Kimning ishini ko'rib chiqib, 2018-yil 4-aprel kuni o'z qarashlarini e'lon qilgan. Qo'mita O'zbekiston hukumatining muallifning so'z va yig'ilish erkinligi, adolatli sud jarayoni va asossiz hibsga olish bilan bog'liq huquqlarini buzganligini aniqlagan. Qo'mita O'zbekistonga Adelaida Kimga yetkazilgan zarar uchun samarali huquqiy himoya choralarini ko'rishni va bunday huquqbuzarliklarning qaytarilmasligini ta'minlash uchun tegishli choralar ko'rishni tavsiya qilgan.

Inson huquqlari xalqaro stadartlart me'yorlarini amalga oshirish vositasi sifatida O'zbekiston Respublikasi bir qator institutlar va islohotlar amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish va targ'ib qilish maqsadida bir nechta muhim milliy institutlar mavjud. Ularning eng asosiylaridan biri **O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)** va **O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi** hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) haqida tahlil qilishdan oldin ombudsman tushunchasini anglab olish zarur. "**Ombudsman**" — bu shvedcha so'z bo'lib, "**vakil**" yoki "**vositachi**" degan ma'noni anglatadi. Ombudsman – davlat organlari, mansabdor shaxslar yoki boshqa tashkilotlar tomonidan inson huquqlarining buzilishiga qarshi kurashuvchi hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil vakildir.

⁹ Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights> 14-modda

¹⁰ Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. <https://lex.uz/docs/-2640479>

O'zbekiston Respublikasida Ombudsman 1995-yilda tashkil etilgan bo'lib, u Oliy Majlisga hisobot beradigan mustaqil institut hisoblanadi. Ombudsmanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: a) inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish; b) tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish; c) jismoniy va yuridik shaxslarning inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi to'g'risidagi murojaatlarini ko'rib chiqish; d) inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikning amalda ro'yobga chiqarilishini o'rganish hamda ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlashdan iborat¹¹.

Konstitutsiyasimizga ko'ra qonunchilik tashabbusiga ega. Qonunchilik takliflarini Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli. Bu esa fuqarolarning inson huquqlari va erkinliklari bo'yicha berilgan huquq ijodkorligini amaliy ifodasi desak ham bo'ladi. Fuqarolar Ombudsmanga yozma yoki elektron shaklda murojaat qilishi mumkin. Shuningdek, maxsus qabulxonalarga borib shaxsan uchrashish imkoniyati ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi **1996-yilda Prezident farmoni bilan tashkil etilgan**.

Milliy markaz inson huquqlari siyosatini amalga oshirish, xalqaro majburiyatlarni bajarish va huquqlarga rioya etilishini nazorat qilishga ko'maklashadi. Shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish, davlat organlariga maslahat berish, huquqiy savodxonlikni oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan shug'ullanadi. Milliy strategiyagini ishlab chiqarish orqali Milliy markaz o'z faoliyatini belgilab olish bilan birga, yillik inson huquqlari bo'yicha seminarlar, huquqiy ongni oshirish bo'yicha ishlarni amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha milliy institutlari faoliyati haqida ma'lumotlar mavjud. Masalan, 2024-yilning birinchi yarmida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi 712 ta murojaatni ko'rib chiqdi va 350 nafardan ortiq fuqaro bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Shuningdek, telefon orqali 1 650 nafardan ortiq fuqaroga huquqiy maslahatlar berildi¹².

Umumiy xulosaga keladigan bo'lsak, Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar dunyo miqyosida huquq va erkinliklarni himoya qilish uchun ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy asos hisoblanadi. Ushbu standartlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilib, universal tamoyillarga asoslanadi. Assosan inson huquqlari me'yor va standartlarni ta'minlash ishtirokchi davlatlarning inson huquqlari bo'yicha sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish va barham berishga yordam ko'rsatadi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida <https://lex.uz/docs/-7223219>

¹² nhrc.uz

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt fuqarolarning fuqarolik va siyosiy huquqlarini amalga oshirilishi, Iqtisodiy, itimoiy pakt orqali fuqarolarning jamiyatdagi huquqlarini mustahkamlab beradi. Misol uchun mehnat qilish erkinligi, madaniy huquqlarga ega bo'lishi, dam olish, ochlikdan himoyalaniş kabi huquqlarni ifodalanadi¹³. Xalqaro standartlar inson huquqlari bo'yicha huquqiy asosni yaratadi, xalqaro tashkilotlar esa ularning bajarilishini nazorat qiladi va amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqadi. Shu sababli, ushbu ikkisi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson huquqlarining global miqyosda ta'minlanishida muhim rol o'ynaydi. Keys tahlilimizda ham Inson huquqlari qo'mitaga murojaat qilish kabi holatni uchratishimiz mumkin. Barcha ichki vositalardan foydalanib bo'lgan **BMT Inson huquqlari qo'mitasi** (agar ichki sud muhokamalaridan keyin ham huquqlar tiklanmasa)ga murojaat qildi. Adelaida Kimning faqatgina milliy qonunchilik bilan emas xalqaro tashkilotlarning e'tiboridan ham chetda qomadi. Inson huquqlari bo'yicha qonun chiqaruvchi hokimiyat ham bu borada islohot olib bormoqda. Mustaqillik yillarida parlament tomonidan 600 dan ortiq qonun qabul qilindi, O'zbekistonimizning qonunchilik bazasi doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Amaldagi qonunlarimizning 120 dan ortig'i bevosita inson huquqlariga taalluqlidir. O'zbekiston bugungi kunda inson huquqlariga oid 70 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlarga qo'shilgan¹⁴. O'zbekistonda Milliy instutlar bo'lganidek, xalqaro tajribaga asoslanib boshqa chet el davlatlarda inson huquqi va manffatlarini himoya qiladigan instutlar mavjud. Misol uchun

• **Inson Huquqlari Bo'yicha Komissiya:** Buyuk Britaniya Inson Huquqlari Bo'yicha Komissiyasi (Equality and Human Rights Commission) inson huquqlari va tenglik masalalarini nazorat qiladi hamda targ'ib qiladi.

Yevropa davlatlari:

• **Fransiya:** Fransiyada "Défenseur des droits" (Huquqlar himoyachisi) instituti mavjud bo'lib, u fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qiladi.

• **Ispaniya:** Ispaniyada "El Defensor del Pueblo" (Xalq himoyachisi) ombudsmanlik instituti mavjud bo'lib, va fuqarolarning huquqlarini doir shikoyatlarini ko'rib chiqadi.

• **Shvetsiya:** Shvetsiyada Ombudsmanlik instituti uzoq tarixga ega bo'lib, u inson huquqlarini himoya qiladi.

REFERENCES

I.Asosiy adabiyotlar

1. Yusupova F. Inson huquqlari. O'quv qo'llanma.-T.:2024.

¹³ Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. <https://lex.uz/docs/-2686000>

¹⁴ G'afurov A., Mo'minov A., Tillaboyev M. Inson huquqlari. O'quv qo'llanma.-T.:Baktria Press, 2012, 14b.

2. Yuldasheva G., Gafurova N, Inson huquqlari. O'quv qo'llanma.-T.: TDYU, 2023.
3. Saidov A.X va boshqalar. Xalqaro ommaviy huquq.-T.:TDYU nashriyoti, 2023.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Mo'minov A. Inson huquqlari. Daeslik.-T.:Adolat,. 2013.
5. G'afurov A., Mo'minov A., Tillaboyev M. Inson huquqlari. O'quv qo'llanma.-T.:Baktria Press, 2012.
6. Mualliflik jamoasi. Inson huquqi. Darslik.-T.: O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021.

III.Xorijiy adabiiyotlar

7. Права человека. Пстория, теория и практика/Организатор авторского коллектива Б. Назаров.-М.: 1995.
 8. Philip Alston. International human Rights. Text and materials. – New York,2024.
- Xalqaro hujjatlar

9. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
10. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt . <https://lex.uz/docs/-2640479>
11. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt . <https://lex.uz/docs/-2686000>

V.Normativ-huquqiy hujjatlar

12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida <https://lex.uz/docs/-7223219>
14. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-4098056>